

把 “BA” IYEROGHLIFI VA KONVERSION OMONIMIYA



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2025-26-21-26>

Artikova Ziyoda Zaynitdinovna

PhD, katta o'qituvchi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

ziyda78@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada xitoy tilidagi konversion omonimiya hodisasi xususan, “ba (把)” iyeroglifi misolida tahlil qilingan. Tadqiqotda “ba (把)” iyeroglifi fe'l, ot, hisob so'zi va ko'makchi singari turli grammatik vazifalarda qo'llanishi orqali leksik-grammatik ko'p qirralilikni namoyon etishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada “ba (把)” morfemasining kompozitsiya va affiksatsiya usullarida so'z yasash jarayonidagi ishtiroki amaliy misollar yordamida yoritilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, “ba (把)” iyeroglifi xitoy tilidagi konversion omonimiyaning eng tipik namunasi bo'lib, uning ma'no va so'z turkumlari orasidagi o'tish xususiyati xitoy tili morfologiyasi va sintaksisining ichki bog'liqligini ochib beradi.

Kalit so'zlar: konversion omonimiya, “ba (把)” iyeroglifi, xitoy tili grammatikasi, morfologiya, sintaksis, kompozitsiya, affiksatsiya.

THE CHINESE CHARACTER “BA (把)” AND CONVERSIONAL HOMONYMY

Abstract. This article analyzes the phenomenon of conversional homonymy in the Chinese language, particularly through the example of the character “把 (bǎ)”. The study demonstrates that the character “把 (bǎ)” exhibits lexico-grammatical versatility, functioning in various grammatical roles such as a verb, noun, measure word, and preposition. The paper also illustrates, with practical examples, the participation of the morpheme “把 (bǎ)” in word formation processes through composition and affixation. The findings show that “把 (bǎ)” represents one of the most typical examples of conversional homonymy in Chinese, and its semantic and grammatical transitions reveal the interrelation between morphology and syntax in the Chinese language.

Keywords: conversional homonymy, Chinese character “把 (bǎ)”, Chinese grammar, morphology, syntax, composition, affixation.

Kirish. Konversion omonimiya tushunchasini birinchi bo‘lib A.I. Smirnitiskiy ingliz tiliga nisbatan ishlatgan¹, keyin esa xitoy tili grammatikasi, so‘z turkumlari ustida izlanishlar olib borgan V.M. Solnsev xitoy tiliga nisbatan qo‘llagan². N.N. Korotkov esa bunday so‘zlarni polivalent so‘zlar deb atagan³.

Shulardan biri ABCĎ deb belgilanib, leksik-grammatik, fonetik-grafik omonimlar guruhi deb nomlanadi. Ya’ni A talaffuzi va B yozilishi bir xil, ammo Ć leksik va Ď grammatik jihatdan farq qiladigan so‘zlar kiritilgan guruh hisoblanadi.

把 [bǎ] – *olmoq, ushlamoq* – fe’l;

把 [bǎ] – *dona* – hisob so‘zi;

把 [bǎ] – *rul, bog‘lam* – ot.

Yana biri sof grammatik fonetik grafik omonimlar bo‘lib, ABCĎ bilan belgilanadi, bu guruhga A o‘qilishi, B yozilishi, C leksik ma’nosi o‘xshash bo‘lgan, ammo Ď turli grammatik kategoriyaga tegishli so‘zlar kiradi. Masalan:

把 [bǎ] – *olmoq, ushlamoq* – fe’l;

把 [bǎ] – *inversiya uchun old ko‘makchi* (ushlab ma’nosida);

把 [bǎ] – *siqim* – hisob so‘zi (taxminiy miqdorni bildiradi);

把 [bǎ] – *chamasi, atrofida* – ko‘makchi;

Darhaqiqat, talaffuzi va yozilishi bir xil bo‘lib, turli so‘z turkumlariga oid so‘zlar (iyerogliflar) konversion omonimlar hisoblanadi.

Natija va muhokama. 把 “ba” iyeroglifi bilan bog‘liq konversion omonimlar ikki guruhga ajratildi. Birinchi guruhga ikki va undan ortiq mustaqil so‘z turkumlariga tegishli so‘zlar, ikkinchi guruhga esa ham mustaqil, ham yordamchi so‘zlarga oidlarni kiradi. Tadqiq etilayotgan 把 “bǎ” iyeroglifi ham mustaqil so‘z turkumi – fe’l, ot, hisob so‘zi, ham xizmat qiluvchi so‘z turkumi – old ko‘makchi, ko‘makchi vazifalarida keladi. 把 “bǎ” so‘z birligining tabiatini yanada ochib berish maqsadida uning ushbu guruhi quyidagicha shakllantirildi. 1,3-turlarda 把 “bǎ” asosiy ma’nosi mustaqil so‘z bo‘lib, undan shakllangan ma’nosi ham mustaqil so‘z turkumiga tegishli hisoblanadi. 2,4-turlarda 把 “bǎ” asosiy ma’nosi mustaqil so‘z turkumiga, shakllangan ma’nosi esa yordamchi so‘z hisoblanadi.

1) Fe’l – Ot. Bu erda birinchi ustundagi 把 “bǎ” fe’lining ta’siri natijasida ikkinchi ustundagi 把 “bǎ”ning ot so‘z turkumiga tegishli so‘z kelib chiqqan.

把 “bǎ” Fe’l	把 “bǎ” Ot
-------------	-----------

¹ Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. – Москва: Литература на иностранных языках, 1956. – С. 163.

² Солнцев В.М. Проблемы слова и корня в китайском языке: автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 1955. – С. 28.

³ Хаматова А.А. Омонимия в современном китайском языке. – Москва: Восток запад, 2006. – С. 111.

	→
<i>qo'l bilan mahkam ushlamoq, qo'lga olmoq</i>	<i>(mashina) ruli; (arava) shotisi</i> <i>(somon, o't) bog'lami.</i>

2) Fe'l – Old ko'makchi. 把 “bǎ” fe'lidan 把 “bǎ” old ko'makchisi shakllangan.

把 “bǎ” Fe'l	把 “bǎ” Old ko'makchi
<i>qo'l bilan mahkam ushlamoq, qo'lga olmoq</i>	<i>old ko'makchi (o'zbek tilidagi tushum kelishigi -ni; ma'nosida).</i>

3) Fe'l – Hisob so'zi. Birinchi istundagi 把 “bǎ” fe'lidan keyingi ustundagi 把 “bǎ” hisob so'zi shakllangan.

把 “bǎ” Fe'l	把 “bǎ” Hisob so'zi
	→
<i>qo'l bilan mahkam ushlamoq, qo'lga olmoq</i>	<i>siqim (pat, shuvoq, tuz)</i>
	<i>to'la, jiqqa (ko'z yoshi); qoq suyak; nigoh (romantik); bot (teri); kap-katta (yosh, keksa yosh).</i>
	<i>dona (mash'ala), (belkurak, stul, choynak, kamon, pichoq kabi dastasi bor predmetlar).</i>
	<i>mavhum narsalar – bir (g'azab); birinchi darajali (jamiyatdagi o'rni); bitta (obro'li); bitta (mohir)</i>
	<i>dona (kalit, yelpig'ich kabi dastasi yo'q predmetlar)</i>
	<i>bitta (turtmoq, tortmoq, urmoq, silamoq, artmoq); bir (quchoqlab); bitta harakatda (olmoq).</i>

4) Hisob so'zi – Ko'makchi. 把 “bǎ” hisob so'zi 把 “bǎ” ko'makchisining shakllanishiga ta'sir qilgan.

把 “bǎ” Hisob so'zi	把 “bǎ” Ko'makchi
<i>taxminiy miqdor</i>	<i>chog'li, chamasi.</i>

把 “bǎ” bilan bog'liq konversion omonimiya guruhi uning shakllanish omillariga qarab ishlab chiqildi. Undan tashqari, 把 “bǎ”ning Hozir zamon xitoy tili lug'atlaridagi lug'aviy ma'nolaridan ham foydalanildi. Bunday guruhlashtirish faqat 把 “bǎ” iyeroglifiga tegishli. Hozirgi paytda 把 “bǎ”ning fe'lga xos leksik ma'nosi

kamdan-kam holatda ishlatiladi. Asosan, badiiy adabiyotlar, teatr sahnalari, tarixiy janrlarda uchratish mumkin. Ammo u mustaqil ma'noga ega morfema sifatida qo'shma va yasama so'zlar tarkibida keng qo'llanadi.

Masalan, 把 “bǎ” morfemasi bilan birikkan ot so'z turkumiga doir so'z qo'shma so'z bo'lib, kompozitsiya usulida yasalgan. Kompozitsiya usuli xitoy tilida so'z yasallishining asosiy usullaridan hisoblanadi⁴.

把戏 [bǎxì] – *tovushsiz komedik sahna ko'rinishi, sirk, o'yin, qiliq, fokus, masxarabozlik, janjal (ko'chma ma'noda)*, ot so'z turkumiga tegishli so'z.

把戏 [bǎxì] = 把 [bǎ] – *qo'lga ushlamoq, olmoq* + 戏 [xì] – *o'yin qilmoq, hazillashmoq*. 把 [bǎ] va 戏 [xì] mustaqil ma'noli morfemalar hisoblanadi.

把式 [bǎshì] – *xitoy jangovor gimnastikasi, Ushu, Ushuning texnikasini biladigan shaxs, texnika*, ot so'z turkumiga tegishli so'z. 把式 [bǎshì] = 把 [bǎ] – *qo'lga ushlamoq, olmoq, dasta* + 式 [shì] – *usul, uslub*.

把 [bǎ] va 式 [shì] morfemalari mustaqil ma'noli morfema sanaladi.

把 “bǎ” morfemasi bilan birikib kelgan so'zlar qo'shma so'z bo'lib, kompozitsiya usulida hosil qilingan.

把脉 [bǎ mài] – *pulsni bosib tekshirmoq*, fe'l so'z turkumiga tegishli so'z.

把脉 [bǎ mài] = 把 [bǎ] – *qo'lga ushlamoq, olmoq* + 脉 [mài] – *puls*. Bu yerda birinchi morfemani o'rniga boshqa “按” [àn] – *bosmoq* yoki “诊” [zhěn] – *bosib tekshirmoq* morfemalarini ham ishlatib bo'ladi. 按脉 [àn mài] – *pulsni bosib tekshirmoq*, 诊脉 [zhěnmài] – *pulsni tekshirmoq* so'zi hosil bo'ladi. 把脉 [bǎ mài], 按脉 [àn mài], 诊脉 [zhěn mài] qo'shma so'zlari kompozitsiya usulining fe'l-ob'ekt modeli asosida yasalgan bo'lib, har biri mustaqil ma'noga ega. Bundan tashqari, 把脉 [bǎ mài], 按脉 [àn mài], 诊脉 [zhěn mài] so'zlari sinonimik qatorni tashkil qiladi.

Keyingi misol: 把酒 [bǎjiǔ] – *kosadagi vinoni qo'lga olmoq, ko'tarmoq*, fe'l so'z turkumiga tegishli so'z. 把酒 [bǎjiǔ] = 把 [bǎ] – *qo'lga mahkam ushlamoq, qo'lga olmoq* + 酒 [jiǔ] *vino*. Bu so'zda 把 “bǎ”ning o'rniga “端” [duān] – *tekis ko'tarmoq, ko'tarib keltirmoq* morfemasini ishlatib, 端起酒杯 [duānqǐ jiǔbēi] – *qo'lga ushlab keltirmoq* birikmasini hosil qilsa bo'ladi. 把酒 [bǎjiǔ] – qo'shma so'z bo'lib kelgan, 端起酒杯 [duānqǐ jiǔbēi] – so'z birikmasi sanaladi.

⁴ Насирова С.А. Ҳозирги замон хитой тили дипломатик терминларининг лексик-семантик ва структур таҳлили: филол. фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 2008. – Б. 52.

“把口儿 [bǎ kǒuér] (ot) – yo‘lning kirish-chiqish yo‘lagi va 把子 [bǎzi] (ot) – bog‘lam, to‘da” so‘zlarida ikkita mustaqil morfema emas, balki birinchi qismi morfema, ikkinchi qism affiksdan tashkil topgan, ya‘ni affiksatsiya usulida yasalgan.

把子 [bǎzi] = 把 [bǎ] – *qo‘lga ushlamoq, olmoq* + 口, 子, 儿 [kǒu, zi, ér] – (suffiks)lardan hosil bo‘lgan.

把关 [bǎ guān] – *darvozani qo‘riqlab nazorat qilmoq* ma‘nosidagi qo‘shma so‘z kompozitsiya usulida yasalgan, ikkala morfema mustaqil ma‘noli sanaladi.

把关 [bǎ guān] (fe‘l) = 把 [bǎ] – *qo‘lga olmoq, qo‘riqlamoq* + 关 [guān] – *muhim bo‘lgan ob‘ekt darvozasi, chegara punkti* = 把守关口 [bǎ shǒu guānkǒu] *darvozani (kirish chiqish joyi, chegara punkti) qo‘riqlab nazorat qilmoq* ma‘nosida ishlatiladi.

把关 [bǎ guān] yana bir ma‘nosi – *nazoratga olmoq, xato qilmaslik uchun nazoratni qo‘lida ushlab turmoq, tekshirmoq* ma‘nosi ko‘chma ma‘no kasb etgan.

把关 [bǎ guān] = 把 [bǎ] *o‘z qo‘lida ushlamoq*, 关 [guān] tegishlilik, muhim payt = 把好关 [bǎ hǎo guān] degan ma‘noda keladi.

Xulosa. Konversion omonimlarning qaysi so‘z turkumga oidligi gapdagi o‘rniga qarab aniqlanadi. Chunki xitoy tili gaplarida so‘z tartibi grammatik ma‘noga ega bo‘lib, odatda, birinchi ega, keyin kesim va to‘ldiruvchi keladi (E – K – T). Garchi, xitoy yozuvini o‘rganish ko‘p izlanishlar talab qilsa-da, ammo bu til so‘zlarining qat‘iy tartibi uning ustida ilmiy izlanish olib borayotgan tadqiqotchilar uchun birmuncha engillik tug‘diradi. 把 “bǎ”ning qaysi so‘z turkumiga mansubligini so‘z tartibidan hamda uni o‘rab turgan so‘zlarning ma‘nolaridan ajratib olish mumkin. 把 “bǎ”da aynan fe‘l va old ko‘makchi vazifasidagi o‘rni mos tushadi, qolgan so‘z turkumlariga tegishli ma‘nolarini aniqlash unchalik qiyin emas. Uchinchi ohangdagi 把 “bǎ” gapda ikkinchi o‘rinda kesim vazifasida kelsa, unda u fe‘lga mansub so‘z hisoblanadi.

Foydalanilga adabiyotlar ro‘yxati

1. Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. – Москва: Литература на иностранных языках, 1956. – С. 163.
2. Солнцев В.М. Проблемы слова и корня в китайском языке: автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 1955. – С. 28.
3. Хаматова А.А. Омонимия в современном китайском языке. – Москва: Восток запад., 2006. – С. 111.

4. Насирова С.А. Ҳозирги замон хитой тили дипломатик терминларининг лексик–семантик ва структур таҳлили: филол. фан. ном. ... дисс. – Тошкент, 2008. – Б. 52.
5. Каримов, А. А. (2022). ИЕРОГЛИФ 就 И ЕГО НАРЕЧИЙНЫЕ ЗНАЧЕНИЯ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 22), 70-75.
6. Каримов, Акрамджан Абильевич. "Счётные слова в китайском языке (лексико-семантический, структуральный и функциональный анализ)." (1994).
7. Zaynitdinovna, Artikova Ziyoda, and Karimov Akram Abilevich. "IN CHINESE, THE USE OF THE AUXILIARY 把 “БЎ”." *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES* 4.10 (2023): 10-13.
8. Назарова, С. А., & Каримов, А. А. (2022). ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ КИТАЕВЕДЕНИЯ: НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ КАФЕДРЫ КИТАЙСКОЙ ФИЛОЛОГИИ ТГУВ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 26), 156-162.